

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурад Мансур Бобомурадovich**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ҲАҚИДА АҲДЭШМАККАРЛИК БИЛАН АҚБИЛАНДИ. АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ


<b>1. Гонашвили А.С.</b> К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
<b>2. Sodiqova Shohida Marxaboevna</b> ZAMONAVIY IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
<b>3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich</b> DIN SOTSILOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> MAKTABLARDA IJTIMOIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
<b>5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna</b> “IJTIMOIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
<b>6. Kayumov Kaxramon</b> O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
<b>7. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
<b>8. Ахмедова Раъно</b> ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
<b>9. Masharipov Baxtiyar</b> SIFATIY SOTSILOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
<b>10. Рашидова Шахноза</b> МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
<b>11. То‘рахо‘jaeva Ra’no</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSILOGIK TAHLILI.....	84
<b>12. Zaretdinova Nesibeli</b> QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich,**  
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
professori v.b., sotsiologiya fanlari doktori  
e-mail: farfiyev\_b@mail.ru

### DIN SOTSILOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR<sup>1</sup>

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868204>

#### ANNOTATSIYA

Zamonaviy sotsiologik bilim tizimi tarkibida ko‘plab soha va maxsus yo‘nalishlar mavjudligini qayd etib, ular orasida din sotsiologiyasi fani o‘z tadqiqotlarining dolzarb mavzularga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, din va diniy e‘tiqod masalalari har qanday jamiyatning fundamental muammolari sirasiga taalluqlidir. Xususan, mamlakatimiz sharoitlarida ham mazkur masalalar din sotsiologiyasi fani tomonidan faol tadqiq etilmoqda. Ammo, din sotsiologiyasi mamlakatimiz sotsiologik bilimi tizimida endi shakllanayotgan maxsus yo‘nalish ekanligini tan olib, uning tadqiqotlarida ba‘zi metodologik muammolar mavjudligini kuzatish mumkin. Jumladan, din sotsiologiyasi fanida islom ratsionalizmi kategoriyasiga oid tadqiqotlarni olib borishda ayrim tushunmovchiliklar vujudga kelmoqda. Ilmiy maqolada ushbu muammolar yechimiga oid xulosalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** din, diniy e‘tiqod, soha va maxsus yo‘nalishlari, din sotsiologiyasi, metodologiya, fundamental muammolar, islom ratsionalizmi kategoriyasi.

**Фарфиев Бахрамджан Атахамджанович,**  
и.о. профессора Международной исламской академии Узбекистана,  
доктор социологических наук  
E-mail: farfiyev\_b@mail.ru

### НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО МЕТОДОЛОГИЧЕСКИМ ВОПРОСАМ СОЦИОЛОГИИ РЕЛИГИИ

#### АННОТАЦИЯ

Среди различных специальных областей и отраслевых направлений современной системы социологического знания социология религии имеет особое значение из-за ее внимания к современным проблемам. Действительно, вопросы, касающиеся религии и религиозных убеждений, относятся к числу фундаментальных проблем любого общества. В частности, в условиях нашей страны эти вопросы активно изучает социология религии. Однако стоит отметить, что социология религии как специальная область социологического знания нашей страны в проведении исследований сталкивается с определенными методологическими проблемами. В частности, в социологии религии при рассмотрении

<sup>1</sup> Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2024-yil 8 aprelidagi 1916-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

сущности категории исламского рационализма возникают некоторые недоразумения. Научные выводы по решению этих проблем представлены в данной статье.

**Ключевые слова:** религия, религиозное верование, отраслевые и специальные направления, социология религии, методология, фундаментальные проблемы, категория исламского рационализма.

**Farfiyev Bakhramdjan,**

acting professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan,

Doctor of Sociological Sciences

E-mail: farfiyev\_b@mail.ru

## SOME CONSIDERATIONS ON METHODOLOGICAL ISSUES IN THE SOCIOLOGY OF RELIGION

### ABSTRACT

Among the various special fields and branches of the modern system of sociological knowledge, the sociology of religion is of particular importance because of its attention to contemporary problems. Indeed, issues relating to religion and religious beliefs are among the fundamental problems of any society. In particular, in the conditions of our country, these issues are actively studied by the sociology of religion. However, it is worth noting that the sociology of religion as a special area of sociological knowledge in our country faces certain methodological problems in conducting research. In particular, in the sociology of religion, when considering the essence of the category of Islamic rationalism, some misunderstandings arise. Scientific findings to solve these problems are presented in this article.

**Key words:** religion, religious belief, sectoral and special areas, sociology of religion, methodology, fundamental problems, category of Islamic rationalism.

### KIRISH

Mamlakatimiz ijtimoiy fanlari tizimida o'zining munosib o'rnini topishga intilayotgan sotsiologiya fani jamiyat hayotining barcha sohalarida uchrayotgan dolzarb muammolarni ham nazariy, ham amaliy jihatlarida tadqiq etish salohiyatiga egadir. Ammo, sobiq totalitar tuzum davrida mazkur fanga nisbatan kommunistik mafkuraning g'oyaviy asosi – tarixiy materializmning dastyori sifatida munosabatda bo'lib kelindi. Zero, tarixiy materializm jamiyat hayotining qonuniyatlarini tizimli tarzda tadqiq etuvchi, monopol mavqega ega bo'lgan, mutlaq haqiqatni ifodalay oladigan ta'limot sifatida ulug'landi. Sotsiologik tadqiqotlar esa faqat tarixiy materializm xulosalarini amaliy jihatdan isbotlovchi vosita deb ta'riflandi. Uning hatto, fan darajasidagi maqomi inkor qilib kelindi.

Mazkur yondashuv sobiq Ittifoq parchalanishi arafasida o'z dominant ta'sirini yo'qotib, pirovardida, mamlakatning bir qator yetakchi oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fakultetlari yoki bo'limlari tashkil qilina boshlandi. Jumladan, 1989- yilda Toshkent davlat universitetining falsafa-iqtisod fakulteti tarkibida sotsiolog mutaxassislarni tayyorlaydigan bo'lim ochildi. Mamlakatimiz o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lgan davrdan boshlab esa sotsiologiya ixtisosligi bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash asta-sekinlik bilan yangi sifat bosqichiga ko'tarilishi kuzatildi. Shuningdek, mamlakatning barcha oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fani o'qitila boshlandi. Chunki, yoshlar tafakkurida jamiyatni yaxlit ijtimoiy tizim sifatidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish sotsiologiyaning tadqiqot obyekti – sotsial institutlar faoliyatiga oid bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Sotsial institutlar jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir ko'rsatar ekan, bunda ular bir-birlari bilan mustahkam aloqaga kirishadilar. Mazkur institutlar orasida din o'zining munosib va salohiyatli o'rniga ega. Din institutining ahamiyati yana shundaki, u har zamon va har makonda muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelgan va hozirda ham shunday maqomda qolmoqda.

### METODOLOGIYA

Tarix lavhalariga nazar tashlasak, shunday holatga duch kelamiz: insonning dinga munosabati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, din va diniy e'tiqod ijtimoiy hayotda hamisha o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. Jumladan, davlat mafkurasining asosini materialistik ta'limot tashkil etgan jamiyatlarda din keskin tanqidga uchragan. Dindorlar shafqatsiz tarzda ta'qib ostiga olinib, qatag'on qilingan bo'lsalar, boshqaruv tizimi demokratik qadriyatlarga tayangan davlatlarda esa din va diniy e'tiqod hurmatga sazovor bo'lib, fuqarolarga diniy amallarni bajarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Lekin, bunday antogonistik yondashuvlar mavjud bo'lishidan qat'iy nazar, din instituti vazifalari mutaxassislarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, hozirda ham tarix, dinshunoslik, teologiya, falsafa, psixologiya, sotsiologiya va boshqa bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlarning olimlari tomonidan din instituti bilan bog'liq masalalar faol tadqiq etilmoqda. Mazkur fanlar orasida sotsiologiya fani o'zining maxsus yo'nalishi – din sotsiologiyasi timsolida dinni alohida tadqiqot obyektini, muhim sotsial institut sifatida tahlil qilib kelmoqda. Din sotsiologiyasi fani vazifasining o'ziga xosligi shundaki, bunda din bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy jarayonlar nafaqat nazariy, balki maxsus empirik tadqiqotlarning ma'lumotlari asosida, ya'ni amaliy jihatlarda ham faol tadqiq etiladi. Chunki, bu fan o'z ilmiy xulosalarini jamoatchilik fikrini bevosita va amaliy tarzda o'rganish orqali ilgari suradi.

### ASOSIY QISM

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotini modernizatsiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va ular negizida kechayotgan ijtimoiy taraqqiyot hodisasi bir qator muhim omillarga tayanar ekan, ular orasida dinning sotsial institut sifatida bajarayotgan ijtimoiy funksiyalari bu jarayonlarga ijobiy ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda mamlakatimizda kishilar diniy e'tiqodining ijtimoiy jarayonlarga ko'rsatayotgan faol ta'siri masalalari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb sotsial muammolarni din sotsiologiyasi mutaxassislari tomonidan o'ziga xos yondashuvlar hamda vositalar bilan hal qilinayotganligini e'tirof qilish mumkin. Xususan, biz ham din sotsiologiyasi doirasidagi mamlakatimizdagi ilk doktorlik dissertatsiya ishini ijtimoiy taraqqiyot hodisasini amalga oshirish jarayonida vujudga kelayotgan dolzarb ijtimoiy muammolar yechimini ishlab chiqishda islom dini omilining tutgan ahamiyati tadqiqotiga bag'ishlashga jazm etdik.

Mazkur tadqiqotni olib borishimizga bir hodisa sabab bo'ldi. Uzoq yillar mobaynida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabalari uchun «Sotsiologiya tarixi» va «Din sotsiologiyasi» fanlaridan ma'ruza hamda seminar mashg'ulotlarini olib borish uchun ko'rilayotgan tayyorgarchilik jarayonlarida taniqli nemis sotsiologii – Maks Veber (1864-1920) ning asarlariga muntazam ravishda murojaat etib keldik. Ayniqsa, u tomondan 1905 yilda nashr etilgan «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» bizda katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur asarida u dinning bosh vazifasi – inson faoliyatiga muayyan ma'noni berish funksiyasidir degan g'oyani ilgari suradi [6, – S.157]. Chunki, din kishilar faoliyati qanday yo'nalishda kechishidan qat'iy nazar, unga kuchli ta'sir qilish salohiyatiga ega. Dinning shunday sifati tufayli Veber uni sotsial o'zgarishlarning muhim omili, deb hisoblaydi va xristianlikdagi protestant yo'nalishining kalvinizm mazhabini G'arbiy Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan hamda jadal rivojlanayotgan kapitalistik tuzumning ma'naviy omili sifatida qayd etgan. Taniqli amerikalik sotsiolog Talkot Parsons (1902-1979) M.Veberning dinning sotsial o'zgarishlar omili haqidagi konsepsiyasiga quyidagi bahoni bergan edi: «Maks Veber hech bir sotsiolog ko'rsatib bera olmagan hodisani aniqladi, ya'ni u jamiyatni asosiy turlarga ajralishi, muayyan sotsial o'zgarishlarning muhim rag'batlarini yaratilishi va ayniqsa, zamonaviy industrial jamiyat rivojining omilini belgilab berishda hal qiluvchi hissasini qo'shgan asketik protestantizm timsolida buyuk diniy harakatlarning ahamiyatini yaqqol isbotlab berdi» [8, – S.376].

Veber kishilik jamiyati taraqqiyotini ta'minlashga ulkan asos bo'lgan kapitalistik tuzumning ham aynan G'arbda shakllanganligini ishonchli dalillar bilan isbotlashga harakat qildi: «Tadbirkorlik, to'kin-sochinlik va ko'proq moliyaviy foyda olishni ko'zlash kapitalizm bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Bunday intilishlar ofisiantlar, shifokorlar, izvoshchilar, rassomlar, poraxo'r-amaldorlar, harbiylar va hatto, qaroqchilar, salb yurishlari qatnashchilari hamda qimorbozlar ham kuzatilgan va kuzatilmoqda. To'la asos bilan aytish mumkinki, bunday maqsadga intilish uchun biror-bir obyektiv sharoit bo'lsa, bu xususiyat har davr va har qanday mamlakatga xos voqelikdir» [4, – S.47-48].

Yuqoridagi mulohazalariga tayanib, u kapitalizm haqidagi mazkur sodda tasavvurlardan voz kechish kerakligini ta'kidlaydi. Boylik ortirish yo'lidagi cheksiz ochko'zlik hech qanday ma'noda kapitalizmga mos va xos emas. Ayniqsa, bu hol uning ruhiga tamoman ziddir va shuning uchun «kapitalizmning o'zi irratsionalizmga asoslangan ushbu hodisani bartaraf qilish mexanizmidir», degan xulosaga keladi. Uning fikricha, kapitalizm – bu muttasil faoliyat ko'rsatadigan ratsional kapitalistik korxonalar doirasida foyda ko'rishga, sarmoyadorlik va samaradorlikka intilishdir. Lekin, bunday korxonalar ilgari jamiyatlarda ham faoliyat ko'rsatganlar. Veber «Xitoy, Hindiston, Bobil, Misr kabi mamlakatlarning G'arbdagi davlatlar bilan farqi shundaki, ularda burjuaziya va proletariatning sinf sifatidagi munosabatlari mavjud emas», degan xulosasini ilgari suradi.

Shuningdek, u Sharq va G'arb o'rtasida boshqa bir qator o'zaro o'xshashliklarni ko'rsatib o'tib, kapitalistik jamiyatning shakllanishiga asosiy ta'sirni ko'rsatgan ma'naviy omil – xristianlikdagi protestantlik oqimining ratsionallikka asoslangan axloqiy xususiyatlaridir, degan fikrga keladi. Bunday xulosani chiqarish uchun u yana tarixiy materiallarga murojaat qiladi. Ma'lum bo'lishicha, XIX asr boshlariga kelib, protestantlikka e'tiqod qiluvchi mamlakatlar katolisizm va pravoslavlik hukmronlik qilgan mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan ancha o'zib ketishgan. Bunga u protestantlikka moyil bo'lgan ilg'or – Angliya va Niderlandiya, shuningdek, katolisizmga qattiq rioya etib kelayotgan qoloq – Ispaniya va Italiyaning tajribasini misol tariqasida keltiradi. Bu holatning asosiy sabablari sifatida Veber protestantlikdagi tolerantlik xususiyatlari va bu mazhab cherkovining sarf-xarajatlari ratsionallik asosiga qurilgani: ortiqcha bayramlar, bekorchi, tekinxo'r ruhoniylarning yo'qligi va buning natijasida esa qo'shimcha ishchi kuchlari paydo bo'lganini ta'kidlaydi.

Lekin, eng asosiysi – bu protestantlikda «dunyoviy asketizm»ni ifodalovchi ratsional tafakkurning hukmronligidir. Unga muvofiq, protestantizm dunyoviy kasbiy faoliyatni Xudo yo'lida xizmat qilish, iqtisodiy qonunlarni esa diniy majburiyatlarning bajarish vositasi, degan fatvoni qabul qildi. Albatta, Veber ijtimoiy taraqqiyot masalalarini din sotsiologiyasi jihatidan kelib chiqib, amalga oshirgan tahlilida faqatgina «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asari bilan cheklanib qolmadi. Bu mavzudagi o'z ilmiy qarashlarini keyingi asarlarida tobora takomillashtirib borishga muvaffaq bo'ldi va uning ilg'or g'oyalari din sotsiologiyasida ratsionalizm yo'nalishining tutgan ahamiyatini yanada oshishiga o'zining katta ijobiy ta'sirini o'tkazdi.

M. Veber merosini o'rganib, uni tahlil qilish asosida: «Agarda protestantizm shakllanishi XVI asr sharoitlari bilan bevosita bog'liq bo'lsa va u XIX asrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida kapitalistik tuzumning vujudga kelishiga faol ta'sir ko'rsatib, uning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlagan asosiy ma'naviy omillaridan biri sifatida gavdalansa, VII asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida nozil bo'lgan va taraqqiyotini Movarounnahr mutafakkirlari faoliyatida topgan islom dini o'zining ratsionalizm tamoyili asosida zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining ma'naviy omillaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin emasmikin?» degan savol bizda konkret bir ilmiy gipotezaning paydo bo'lishiga xizmat qildi. Mazkur gipotezaga muvofiq, 15 yil davomida professor N.S. Aliqoriev ilmiy maslahatchiligida 22.00.03. – «Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi» ixtisosligi doirasida «O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizmi omili» mavzusi bo'yicha tadqiqot ishlarini olib bordik. Avvalambor, ijtimoiy taraqqiyot hodisasining tizimli tahliliga kirishdik va ijtimoiy taraqqiyot bir qator omillarning bajarayotgan tizimli hamda determinatsiyalashtiruvchi vazifalari natijasida amalga oshiriladi, degan xulosada to'xtaldik. Albatta, ularning orasida moddiy-iqtisodiy va moliyaviy omillar o'rni beqiyosdir. Chunki, mo'tadil tabiiy iqlim va qulay hududiy joylashuv, hamda, boy tabiiy qazilmalar zaxirasining mavjudligi har qanday mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ma'no kasb etadi. Shu bilan birgalikda, bu jarayonda ma'naviy omillarning ahamiyati moddiy omillarnikidan sira kam emas. Jahonning rivojlangan postindustrial mamlakatlari (Yaponiya, Germaniya va hokazolar) tajribasi bunga ishonchli misol bo'lishi mumkin.

Masalaga aynan shu nuqtai nazardan yondashganda, ijtimoiy taraqqiyotni o'z milliy rivojlanish xususiyatlari asosida amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasida ham moddiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy omillarning o'rniga alohida e'tiborga qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidenti SH.M. Mirziyoev erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etishimizda mazkur omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida e'tirof etib kelmoqda.

«Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir» [1, – B.144].

Darhaqiqat, boy tarixiy-madaniy meros negizida shakllangan va takomillashayotgan milliy mentalitetimiz o‘zida yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatni mujassamlashtirgandir. Milliy mentalitetimizning shakllanishi va rivojiga dunyoviy- madaniy xususiyatlarimiz bilan o‘zaro uyg‘unlikda bo‘lgan islom dini hamda uning falsafasi ham ijobiy ta’sir qilib keldi va hozirda ham shunday bo‘lib kelmoqda. Chunki, bu dindagi oqilonalik xususiyat xalqimizning dunyoviy-milliy an’analari va urf-odatlariga chuqur singib ketgan. Shuning uchun, islom dinidagi ratsionalistik tamoyil O‘zbekistonning bugungi kunda shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim ma’naviy omillardan biri bo‘lib xizmat qilishi tabiiy holdir. Albatta, ijtimoiy taraqqiyot jarayonini amalga oshirish o‘ta mushkul ishdir. Uni mamlakatimiz sharoitlarida ravon va o‘z ichki qonuniyatlari asosida kechishini ta’minlash yo‘lida jiddiy g‘ov sifatida paydo bo‘layotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf qilishda dunyoviylik asosidagi chora-tadbirlar bilan birgalikda islom dinidagi oqilonalik tamoyilidan foydalanish muhimdir.

Tadqiqotimiz davomida ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshirish jarayonida unga to‘siq bo‘ladigan jiddiy muammolarni bartaraf qilishda islomdagi ratsionalizm tamoyilining ahamiyatini nazariy va amaliy jihatlarini asoslab berishga intildik. Ushbu maqsad yo‘lida islom ratsionalizmi tushunchasiga ham baholiqudrat mualliflik ta’rifini berishga harakat qildik. Fikrimizcha, islom ratsionalizmi – bu islom diniga e’tiqod qiluvchilarning turmush va tafakkur tarzi (mentalitet) ni shakllantirish hamda ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan islomiy bilimlar, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, ijtimoiy-madaniy tartib-qoidalar, intizom, shuningdek, insonparvarlik, bunyodkorlik va bag‘rikenglik kabi gumanistik g‘oyalarlarni o‘zida ifodalovchi sotsiologik kategoriyadir.

Demak, kishilarning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatlarini to‘g‘ri va ravon yo‘nalishda kechishiga asos bo‘ladigan islomiy bilimlar, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, ijtimoiy-madaniy tartib-qoidalar, intizom, shuningdek, insonparvarlik, bunyodkorlik va bag‘rikenglik kabi gumanistik g‘oyalari islom ratsionalizmi fenomeni strukturasining tarkibiy elementlari bo‘lib gavdalanadi. Mazkur elementlarning barchasi kishilarning toqatlari ko‘taradigan darajada namoyon bo‘lish xususiyatlari dinimiz manbalarida ochiq-oydin bayon etilgan. Mazkur fikrimizni Qur’oni karim oyatlari bilan dalillash mumkin. Xususan, «Baqara» surasining 286-oyatida «Alloh hech bir jonga imkoniyatidan tashqari narsa yuklamas» degan xitob yangraydi. [10, – B.304].

Zero, bunday xulosalarni ilgari surar ekanmiz, haqiqatan ham islom dinida kishilar amal qilishi lozim bo‘lgan barcha burch va majburiyatlar oson, tushunarli tarzda qo‘yilganini kuzatish mumkin. Mazkur holatni nafaqat islom diniga e’tiqod qiluvchilar, balki, nasroniylikka taalluqli kishilar ham e’tirof etishadi. «Umuman olganda, islom jahon dinlari orasida boshqalariga qaraganda o‘zining oddiyligi va tushunarliliigi bilan ajralib turadi. Odamning dunyoga kelishidan, to uni tark etguncha bo‘lgan davridagi barcha xatti-harakatlari aniq yo‘l-yo‘riqqa asoslangan qoidaga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular ochiq-oydin muvofiqlashtiriladi» [5, – S.31].

Haqiqatan ham islom dinida kishilarning ibodat qilishi ham, turmush tarzlarini olib borishi ham ularga ortiqcha qiyinchiliklarni paydo qilmaslik talablari asosida amalga oshirish buyuriladi. Ya’ni, biz bu yerda ushbu dindagi aynan ratsionallik holati bilan ro‘para kelyapmiz. Xususan, islomda farz amallaridan biri bo‘lgan ramazon ro‘zasini sog‘-salomat bo‘lgan va safarga chiqmagan kishi tutishi talab etiladi. Agar uning salomatligi bunga monelik qilsa, unda u fidya, ya’ni bir muhtoj kishining bir oylik oziq-ovqatini ta’minlash orqali ushbu farz amalidan ozod bo‘ladi. Safarda yurgan kishi esa musofirchilikda aziyat chekmasligi uchun vaqtinchalik bu amalni bajarishdan ozod etiladi, lekin safari tugagandan keyin ramazon ro‘zasini boshqa oyning kunlarida tutib berishi lozim.

Shuningdek, zakot berish va haj ziyoratini amalga oshirish ham iqtisodiy imkoniyati talab darajasida bo‘lgan kishilargagina buyurilgan. Mol-mulkka ega bo‘lish va o‘z daromadlaridan soliqlarni to‘lash talabining inson toqatiga mos kelishida ham oqilonalik tamoyilining namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin. Jumladan, zakot farz amali sifatida buyurilgan bo‘lib, o‘ziga to‘q kishining daromadi belgilangan nisobga yetgan sharoitlarda undan atigi 2.5%ni muhtoj kishilar

foydasiga ajratadi. Bunday minimal moliyaviy majburiyat dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham kuzatilmaydi

Islom dinida boy-badavlat bo'lish taqiqlanmagan, lekin noz-nematlarni me'yorda, oqilona iste'mol qilish buyurilib, ularni isrof qilish keskin qoralanadi. Bu yerda gap islomdagi mo'tadillik tamoyili haqida ketayapti. Islom dinida har sohada mo'tadillikka rioya qilishga alohida urg'u berilgan. Mo'tadillikning yadrosini ham islomdagi oqilonalik tamoyili tashkil etadi. Ammo ba'zi xorijiy adabiyotlarda ularning mualliflari islom ratsionalizmi kategoriyasi faqatgina mu'tazilik ta'limotiga tegishli bo'lgan markaziy tushunchadir, degan xulosani ilgari surishadi. Ha, haqiqatan ham mu'tazilik oqimi inson tafakkurining imkoniyatlarini me'yoridan oshiq tarzda ulug'lab, uning yordamida Qur'on va hadislarda bayon etilgan xulosalar va hukmlarni tekshirib ko'rib, ularni to'g'ri, deb topilgan sharoitlardagina ularga rioya qilish g'oyasini himoya qilib chiqishdi.

Mazkur ta'limot Vosil ibn Ato (699-748) yetakchiligida vujudga kelib, u islom dinidagi o'zaro birdamlik va hamjihatlikka jiddiy zarar yetkazishga sababchi bo'ldi. Buyuk bobokalonimiz Abu Mansur al-Moturidiy o'z ijtimoiy-ilmiy faoliyati davomida mazkur ta'limotning zararli ta'siri bilan astoydil va sermahsul tarzda kurashib keldi. Bunda u mu'taziliklarga ularning o'z «quroli» bilan javob qaytarib, qaqshatqich zarba berdi. Bu haqida zamonamizning taniqli olimi – Ali-zade Aydin Arif o'g'li quyidagilarni ta'kidlaydi: «Moturidiy Ashariy kabi Qur'on oyatlarini aqlning dalillari asosida talqin qilish mumkin deb hisoblagan. Ammo bunda u Ashariydan farqi o'laroq ilohiy vahiylik masalalarini tushunishda aqlning rolga katta e'tibor qaratgan. Xususan, bu holat Xudoning borlig'i masalasiga munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu masalada ashariylar faqat vahiylikning dallillarini asos sifatida olinish zarurligini ta'kidlasalar, moturidiychilar esa ratsional tahlilni ham mumkin deb hisoblaganlar. Moturidiy fikricha, Allohning mavjudligi dalilini aql yordamida anglash mumkin. Qur'on ham aynan shu haqida so'z ketadi. Shuning uchun Moturidiy fikricha, Xudoning borlig'ini aqliy bilishga asoslanib, anglashga intilish Qur'on talabalarini bajarishni ifodalaydi» [3, – S.482-483]. Abu Mansur al-Moturidiyning mazkur masalaga oid yana bir fikri alohida e'tiborga sazovor. Bu haqida Ali-zade Aydin Arif o'g'lining taqdim etgan ma'lumotlari o'rindir. Jumladan, u quyidagilarni ta'kilab o'tadi:

«Xudoning borlig'ini aqlning dalillariga asoslanib, anglash imkoniyatlarini tan ola turib, Moturidiy ilohiy amr-farmonlarni aql yordamida bilish imkoniyati mavjud emas va bu hodisani bevosita vahiylikka asoslanib qabul qilishni zaruratdir, deb hisoblaydi. Ya'ni, agar aql u yoki bu hodisani yaxshi yoki yomon deb ta'riflasa, unda uzil-kesil yakuniy hukumni faqatgina vahiylik sifati asosida chiqarish mumkin. Chunki, sof aql o'z shakliga muvofiq Xudo buyurgan xalol va qaytargan haromning mohiyatini anglashga qodir emas. Bu masalada moturidiychilar mu'taziliklardan keskin farq qiladilar. Zero, mu'taziliklar agar aql u yoki bu hodisa, faoliyatni maqbulligi yoki maqbul emasligi haqida ma'lumot bersa, unda aqlning dalillariga tayanish zaruratini himoya qilib chiqdilar» [3, – S.483].

Shu bilan birgalikda, Moturidiy inson aqlining takomil emasligini e'tirof etib, Qur'on va hadislar ustuvor ahamiyatni beradi. Bunda aqlning dalil-isboti bu ikki manbaga zid kelmasligi zarur. Agarda ular orasida qarma-qarshiliklar kelib chiqsa, unda vahiylik holatini qabul qilib, aqlning takomil emasligini tan olish darkor [3, –S.484]. Demak, fikrimizcha, islom ratsionalizmini faqat mu'tazilikka taalluqli tushuncha deb hisoblash islom dini mazmun va mohiyatiga nisbatan umuman zid keladigan yondashuvdir. Mazkur yondashuvga raddiya sifatida islom ratsionalizmi Qur'oni karim nozil bo'lganidan beri, Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) diniydunyoviy faoliyatini aks ettiruvchi hadislar shakllana boshlaganidan beri mavjud degan xulosani ilgari surishga harakat qildik. Zero, kishilarni oqilona fikrlashga chaqirish Qur'oni karim oyatlarida va hadislarda o'zining munosib aksini topgan. Ushbu fikrimizga Qur'oni karimning oyatlarida: «Ular tafakkur qilmaydilar» degan xitob ko'p marta yangrashini asos sifatida ko'rsatish mumkin. Shuningdek, kishining ratsional darajada tafakkur qilish faoliyati hadislarda ham ulug'langan. Binobarin, kishining tafakkur qilish faoliyati ayrim nafl ibodatlaridan yuqori turganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu masala bo'yicha buyuk mutafakkir Abu Lays as-Samarqandiy o'zining «Tanbehul-G'ofiliyn» asarida quyidagi hadisni keltirgani alohida ahamiyat kasb etadi: «Payg'ambardan (s.a.v.) rivoyat qilinadi. Aytдилar: «Bir soat fikrlash bir yillik ibodatdan afzaldir» [2, – B.540].

Yuqoridagi xulosalarga tayanib, islom ratsionalizmi – bu mu'tazilik mahsuli degan fikrni ilmiy haqiqatdan mutlaqo yiroq deb hisoblaymiz. Bu holatga islom diniga nisbatan yuzaki munosabatda bo'lgan, uning tom ma'nodagi ijobiy salohiyatini inkor qilishga qaratilgan harakat sifatida qaralsa maqsadga muvofiq keladi. Rossiyalik professor, falsafa fanlari doktori Raxmatulin R.YU. tomonidan e'lon qilingan «Мутазилици-основатели рационализма в арабo-мусульманской философии» maqolasi huddi shunday ruhda yozilganiga e'tiborni qaratamiz. Avvalambor, maqola marksistik an'anaga tayanib yozilgani, maqolaning birinchi xat boshidagi quyidagi ma'lumotdan yaqqol ma'lum bo'ladi: «Ma'lumki, Muhammadning vafotidan keyin islomda turli xil oqimlar paydo bo'la boshladi. Islom asoschisining 632 yilda sodir bo'lgan vafoti mazkur oqimlarning oliy-siyosiy va ma'naviy hokimiyatga ega bo'lishga qaratilgan harakatidagi o'zaro kelishmovchilikni vujudga keltirdi» [9, – S.630].

Aminmizki, sezgir o'quvchi shunday holatni anglab yetdiki, maqolaning debochasida Muhammad payg'ambar (s.a.v) *islom asoschisi* sifatida ko'rsatilayapti. Bizga yaxshi ma'lumki, bunday yondashuv sobiq totalitar tuzum davridan qolgan dogmatik pozitsiyani namoyish qiladi. Maqolada muallif asosan mu'tazilik tomonidan Allohning sifatleri, Qur'onning mohiyati, taqdiri azal, kishining qilgan gunohlariga mas'ulligi yoki mas'ul emasligi kabi masalalarning bayon etilishiga o'z e'tiborini qaratgan, xolos. Ammo islomning musulmonlar turmush tarzini ratsional tarzda muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan ko'rsatmalari, me'yorlari va tavsiyalari, ya'ni uning sotsial doktrinasini haqida maqolada hech qanday ma'lumot uchramaydi. Fikrimizcha, maqola din falsafasi, islom tarixi fanlarining mavzulariga moslab, tayyorlangan va bunday yondashuvni to'g'ri deb qabul qilish mumkin. Shuningdek, maqolada Qur'onga nisbatan yuzaki qarash asosida murojaat qilish holati kuzatiladi. «Darhaqiqat, Qur'onda turli xalqlar va tarixiy shaxslarning hayotidan ko'plab faktlar keltiriladi. Ammo u tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotining qonuniyatlarini bayon etuvchi ilmiy kitob emas. Bu fizika, sotsiologiya yoki antropologiya ham emasdir» [9, – S.631].

Professor R.YU.Raxmatulin oddiy bir haqiqatni yodidan chiqargan ko'rinadi. Zamonaviy fan va texnika sohasida amalga oshirilgan olamshumul kashfiyotlar haqidagi xabarlar ancha oldin, aynan Qur'on oyatlarida ma'lum qilingani bugungi kunda o'z isbotini topayapti-ku. Shuningdek, rossiyalik olim mu'tazilik Qur'onning ijtimoiy ahamiyatini inkor etganligini ham to'g'ri yondashuv sifatida e'tirof etadi. «Vosil ibn Atoning to'g'ri fikri shundaki, u Qur'on Xudoning olamni o'zgartirish bo'yicha dasturi emas, degan haqiqatni ta'kidlaydi» [9, – S.631].

Lekin, mahalliy mutaxassislarimizdan biri R.YU.Raxmatulin tomonidan nashr etilgan mazkur kamtarona, bir tomonlama maqolasini din sotsiologiyasi doirasidagi islom ratsionalizmi muammosining tadqiqoti uchun muhim va dominant nazariy-metodologik asos sifatida e'tirof etgan. Binobarin, ushbu mahalliy olimimiz tomonidan islom ratsionalizmining mazmun-mohiyatini obyektiv tarzda ochib berishga qaratilgan boshqa mutaxassislarning asarlarini e'tibordan chetda qoldirganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, ozarbayjonlik olim F.M.Muslixabadining «Основные аспекты сбалансированного подхода в исламском рационализме» mavzuidagi ilmiy maqolasi R.Yu.Raxmatulinning yuqorida tahlil etilgan maqolasidan o'zining keng qamrovliligi, ilmiyligi va hayoti misollarga tayanilganligi bilan keskin tarzda farq qiladi. Maqolada muallif islom diniga e'tiqod qiluvchi kishilar hayotini oqilona tarzda tashkil etilishi azaldan mavjudligiga o'z e'tiborini qaratadi. «Olamda sodir bo'layotgan ko'plab hodisalar va inson hayotiga nisbatan ratsionallikka asoslangan muvozanatni ifodalovchi yondashuv musulmon dunyoqarashining asosiy elementlaridan biri sifatida gavdalanadi. Mazkur yondashuvning ildizlari Qur'on oyatlari va naqlariga borib taqaladi» [7, – S. 58].

Ratsionalistik yondashuv haqida uning yana quyidagi fikrlarini ilgari surishi ham ahamiyatga molikdir: «Bundan tashqari, dunyodagi hodisalar, inson faoliyatining turli jabhalari hamda jamiyat hayoti sohalariga nisbatan ratsionalistik yondashuv musulmonlarning muqaddas kitobida uchraydi. Va bu holat muvozanatning saqlash asoslarini tashkil etdi» [7, –S. 58]. F.M.Muslixabadi bunda islomdagi mo'tadillik tamoyiliga o'z diqqat e'tiborini qaratadi. Mo'tadillikning tayanch nuqtasi sifatida u «odil», «adolat» tushunchalarini qayd etadi. Ular esa bevosita haqiqat va muvozanatni saqlash kabi ma'nolarini anglatadi. F.M.Muslixabadi olamdagi tartib Alloh tomonidan qonuniyat sifatida o'rnatilgani va barcha narsalar muayyan mezon asosida yaratilganini bevosita Qur'on

oyatlariga tayangan holda ilgari suradi. «U (yana) osmonlar va Yerning hukmronligiga ega, farzand tutmagan, podshohlikda sherigi bo‘lmagan va barcha narsani yaratib, (aniq) o‘lchovi bilan o‘lchab qo‘ygan zotdir» [11, –S.204].

F.M.Muslixabadi islom ratsionalizmi haqidagi fikrlarini yanada izchil bayon etganiga shohid bo‘lishimiz mumkin. «Diqqatga sazovorligi shundaki, kosmologiyada, tabiatda kuzatilayotgan tartib va muvozanatga amal qilinishi inson hayoti hamda jamiyatdagi barcha hodisalarga ham tatbiq etilmoqda. Adolat keng ma’nodagi tushuncha sifatida shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, u bevosita odob-axloq munosabatlariga taalluqli hisoblanadi. Shuningdek, diniy-ma’naviy qadriyatlar mavjudligining mezoni bo‘lib gavdalanadi. Islom dunyoqarashidagi muvozanatning muvofiqlashtirishga qaratilgan yondashuv mohiyati aynan ushbu tushunchaga asoslanadi. Binobarin, buni ratsional yondashuv deb ham atash mumkin. Zero, sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish oqibatida unda bizni xatolardan muhofaza qilishga xizmat qiluvchi aqlning ishtirokini topamiz» [7, – S.59]. Muallif islom ratsionalizmi va uning muvozanatni saqlashga asoslangan sifatlarini universal deb hisoblaydi va fikrimizcha, uning bunday qarashlari ijtimoiy muammolarga yechim izlashning adekvat yondashuvi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. «Shunday qilib, harakat va xulq-atvordagi muvozanatni saqlashga qaratilgan yondashuv islom ratsionalizmining muhim tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda u ma’naviy va axloqiy yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Mazkur mantiqqa muvofiq, uning asosiy mezoni ko‘rinishida mo‘tadillik va unga amal qilish yoki me’zonga hilof ish qilmaslik namoyon bo‘ladi» [7, – B.61].

#### XULOSA VA TAVSIYALAR

Muxtasar qilib aytganda, islom ratsionalizmi kategoriyasi mazmun va ahamiyat jihatidan Maks Veberning xristian ratsionalizmi tushunchasiga bergan ijobiy ma’noga to‘liq mos keladi, deb hisoblaymiz. Zero, islom ratsionalizmi tamoyili islom dini sotsial doktrinasining mazmun va mohiyatini to‘liq tarzda namoyon etadi. Ayniqsa, jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik, fohishabozlik, korrupsiya, suisid kabi dolzarb ijtimoiy muammolarning yo‘lini to‘shish harakatlariga islom ma’rifati va axloqini o‘zida mujassamlashtirgan ratsionalizm tamoyili katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday illatlarni o‘z vaqtida bartaraf qilmaslik esa ijtimoiy barqarorlikka jiddiy xavf-xatarni vujudga keltiradi. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda kuchli davlat hokimiyatining rolini alohida ta’kidlab, islom dinidagi ratsionallikka asoslangan tolerantlik tamoyilining o‘rni ham bu jarayonda o‘ziga xos bo‘lishi kundalik va ijtimoiy hayotimizda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, din sotsiologiyasi fani plyuralistik yondashuvlarga boyligi bilan ajralib turishini alohida ta’kidlab, islom ratsionalizmi kategoriyasiga tor doiradagi yuzaki fikrlash asosida yondashish, uni faqat islom tarixida mavjud bo‘lib o‘tgan bir oqimning zararli ta’limoti sifatida mutlaq tarzda talqin etilishi mazkur fanning istiqboldagi tadqiqotlariga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin, deb hisoblaymiz.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва обод, демократик жамиятни барчамиз биргаликда барпо этамиз. //Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон». 2017. (Mirziyoyev SH.M. We will build a free, democratic and prosperous state of Uzbekistan together with our courageous and noble people. //We will confidently continue the path of national development at a new stage. Volume 1. – Tashkent: “Uzbekistan”. 2018. – pp.122-123.
2. Абу Лайс ас-Самарқандий. Танбеҳул-Ғофилийн. Араб тилидан Д.Қўшоқов тарж. – Тошкент: «Мовароуннаҳр». 2007. (Abu Lais al-Samarkandi. Tanbehul-Gofilin, translation from Arabic by D.Kushakov. – Tashkent: “Movarounnahr”, 2007.
3. Али-заде А. Исламский энциклопедический словарь. – М.: «Ансар», 2007. (Ali-zade A. Islamic encyclopedic dictionary. – М.: “Ansar”, 2007.
4. Вебер. М. Избранные произведения. – М.: «Прогресс», 1990. (Weber. M.Selected works. – М.: “Progress”, 1990)

5. Вишневский В.П., Вишневская Е.Н. Рост исламской экономики в мире: институциональный анализ. //Ж. Теоретическая экономика. 2013. №5. (Vishnevsky V.P., Vishnevskaya E.N. The growth of the Islamic economy in the world: an institutional analysis. //AND. Theoretical Economics. 2013. No. 5.
6. Гараджа В.И. Социология религии. – М.: «ИНФРА-М», 2007. (6. Garadzha V.I. Sociology of religion. – М.: “INFRA-M”, 2007.
7. Муслихабади Ф.М. Основные аспекты сбалансированного подхода в исламском рационализме. //Ж. Вестник Каз НУ. Серия востоковедения. №2 (59). 2012. (Muslikhabadi F.M. Main aspects of the balanced approach in Islamic rationalism. //AND. Bulletin of KazNU. Oriental Studies Series. No. 2 (59). 2012.
8. Парсонс Т. Общий обзор. //Американская социология. Перспективы, проблемы, методы. –Москва: «Прогресс». 1972. (Parsons T. General overview. //American sociology. Prospects, problems, methods. – М.: “Progress”, 1972.
9. Рахматулин Р.Ю. Мутазилиты – основатели рационализма в арабо-мусульманской философии. // Ж. Молодой учёный. № 14 (94). Июль, 2015. (Rakhmatulin R.Yu. The Mu'tazilites are the founders of rationalism in Arab-Muslim philosophy. // J. Young scientist. No. 14 (94). July, 2015.
10. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Биринчи жуз.– Тошкент:«Шарқ». 2012. (Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Interpretation of Hilal. Volume first. –Tashkent: "East". 2012.
11. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Тўртинчи жуз.– Тошкент:«Шарқ». 2012. (Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Interpretation of Hilal. Volume four. – Tashkent: “East”. 2012.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000